O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI

**“Tasdiqlayman”**
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
rektori ____________ A.Sattarov
____________ 2024-yil

# SURXONDARYO TARIXI FANIDAN O‘QUV DASTURI

(Kunduzgi ta’lim 1-kurs talabalari uchun)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Ta’lim |
| **Ta’lim sohasi:** | 110000 – Ta’lim |
| **Ta’lim yo`nalishi:** | 60111100 – Tarix |

Termiz– 2024

| Fan/modul kodi<br>ST1100 | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>5 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Tanlov | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Surxondaryo tarixi | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Xalqimiz bosib o'tgan ko'p ming yillik tarixini xolisona tarzda milliy istiqlol g'oyalari asosida yoritish tarixshunoslik fanining bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Surxon vohasining ham alohida o'rni mavjud. Shuningdek, Surxon vohasi tarixi juda uzoq davrlarga borib taqaligan qadim maskandir. O'tmish tariximiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan arxeologik yodgorliklarning ham asosiy qismi shu vohada joylashgan, voha hududi insoniyatning eng qadim ajdodlari makon tutgan zamindir.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Surxondaryo tarixi fanining maqsad va vazifalari. Asosiy bo'limlari**

Kirish. Surxondaryo tarixi fanining maqsad va vazifalari. Surxondaryo tarixi fani haqidagi ilmiy qarashlar. Surxondaryo tarixining fan sifatida shakllanishi. Surxondaryo tarixiga oid manbalar va fanga doir adabiyotlar tarixshunosligi.

Surxondaryo tarixini o'rganish bosqichlari, vohada ilk odam manzilgohlarining joylashganligi, O'zbek davlatchiligining ilk o'zaklari bo'lgan Baqtriya hududlarining voha yerlari bilan tutashganligi, tasavvuf tariqatining yirik vakillari Al-Hakim at-Termiziy, Xo'ja Alouddin Attor va So'fi Olloyor hazratlarining shu zaminning farzandlari ekanligi, Chor Rossiyasi va Sovetlar davrida uchbu vohaning, hususan Termiz shahrining muhim strategik makon ekanligi ahamiyatlidir.

**2-mavzu. Surxondaryo tarixining eng qadimgi davri**

Surxon vohasining geografik joylashuvi, qadimda bu yerda yashovchi aholining ijtimiy yashash tarsi, diniy tasavvurlari va termachiligi, vohada qadimiy inson yahsgan makonlari va yodgorliklari.

Teshiktosh g'ori O'zbekistonning janubiy hududidan topilgan paleolit davriga oid yodgorlikdir. Kishilik jamiyatining ilk bosqichi bo'lgan tosh asriga oid tosh manbalar, matnlar, bitiklar, turli tasvirlar, rasmlar, tosh asriga oid mehnat qurollarining yaratilganligi

**3-mavzu. Surxon vohasi Eron Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibida**

Baqtriya va uning tarixiy geografik joylashuvi. Baqtriyada Ahamoniylar istilosi. Baqtriyada Iskandar istilosi. Katan qo'zg'oloni. Baqtriya va Salavkiylar davlati. Antiox I islohotlari. Ellinizm va uning mahalliy madaniyatga ta'siri.

Kursiy Rufning "Iskandar tarixi" va Arrianning "Iskandar yurishlari" asarlaridagi xabarlarida Shimoliy Baqtriya va So'g'diyonada joylashgan viloyatlar, qal'alar va shaharlar xususida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Iskandarning Markaziy Osiyo janubiy viloyatlariga yurishining ikkinchi bosqichi mil.avv. 327-yilning bahorida boshlanganligi.

**4-mavzu. Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida Surxon vohasi**

Viloyatda paxta zavodlari va yog' zavodi ishini qayta qurish, ularni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash rejalari. Sherobod baxshichilik maktabining yirik vakillaridan biri Shernazar baxshi Berdinazar faoliyati.

**10-mavzu. Surxondaryo mustaqillik yillarida**

Mustaqillik va keng imkoniyatlar. Islohotlar jarayoni va uning viloyat hayotidagi aksi. Viloyat sanoati yangi odimlar sari. Qishloq xo'jaligi islohotlar, mulkchilik shakllari va istiqbollar. Mustaqillik yillarida madaniy hayotdagi tub sifat o'zgarishlar. Surxondaryo tibbiyoti yangi davr sharoitida.

O'zbekistonning janubiy hududlarida ham kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil etilishi, sanoat mahsulotlari, xalq ehtiyoji mollari, aholiga turli xil xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilishi, 2021-yilda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 trillion so'mdan, 26 trillion so'mga yetdi.

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar "Surxondaryo tarixi" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Surxondaryo tarixi" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Surxondaryo tarixi fanining maqsad va vazifalari. Asosiy bo'limlari
2. Surxondaryo tarixining eng qadimgi davri.
3. Surxon vohasi Eron Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibida.
4. Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida Surxon vohasi.
5. O'rta asrlarda Surxon vohasi.
6. XVI-XIX asrlarda Surxon vohasi.
7. Vohada mustabid tuzum hukmronligi va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari.
8. Surxondaryo viloyati ikkinchi jahon urushi yillarida.
9. Surxondaryoda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1946-1990 yillar).
10. Surxondaryo mustaqillik yillarida.

*Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o'quv rejada mazkur mashg'ulot turiga ajratilgan soat hajmiga mos ishlar tanlab bajariladi.*

## IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

11. Surxondaryo tarixi fanining maqsad va vazifalari.
12. Surxondaryo tarixining O'zbekiston tarixida tutgan o'rni.
13. Teshiktosh g'ori topilmalarining tarix fanidagi ahamiyati.
14. Amir Temur va Machay g'orlari.
15. Zarautsoy rasmlari.
16. Dalvarzintepa manzilgohi va uning o'rganilishi
17. Jarqo'ton va Sopollitepa manzilgohlari
18. Surxondaryo viloyatida eng qadimgi davr manzilgohlari.
19. Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida Surxondaryo.



20. Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari darida Surxondaryo.
21. O'rta asrlarda Surxon vohasi xo'jaligi.
22. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlarining Termiz shahriga yurishi va uning oqibatlari.
23. O'rta asrlarda Surxon vohasi me'morchiligi
24. Amir Temur va Temuriylar hukmronligi yillarida Surxon vohasiing yuksalishi.
25. Buxoro davlati tarkibida Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti
26. Buxoro davlati tarkibida Surxon vohasining madaniy hayoti
27. Boysun bekligining Buxoro amirligida tutgan o'rni
28. Sherobod bekligining Buxoro amirligida tutgan o'rni
28. Denov beklig ining Buxoro amirligida tutgan o'rni
29. N.Mayevning "Buxoro ocherklari tarixi"da Surxon vohasi aholisi, va xo'jalik hayotining yoritilishi
30. Surxondaryoda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi
31. Surxondaryoliklar 2-jahon urushi davrida
32. Uruhdan keying yillarda viloyatning iqtisodiy-igtimoiy hayoti
33. Suxondaryo viloyati mustaqillik yillarida
34. Yangi O'zbekistonda viloyatning iqtisodiy-igtimoiy hayoti

*Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan mustaqil ish tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.*

| | |
|---|---|
| 3. | **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br><br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br><br>- Surxondaryo tarixi fanining maqsad va vazifalarini, viloyat huduining eng qadimgi davri, Eron Ahamoniylar va Aleksandr Makedonskiy saltanati tarkibidagi tarixini o'rganadi.<br>- Yunon-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida,o'rta asrlarda, XVI-XIX asrlarda Surxon vohasi aholisining Vohada mustabid tuzum hukmronligi va unga qarshi milliy ozodlik harakatlarini o'rganadi.<br>- Surxondaryo viloyatining ikkinchi jahon urushi yillarida ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xalq xo'jaligi, viloyatning 1946-1990 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot hamda viloyat mustaqillik yillarida ahvoli haqida |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., "O'zbekiston", 2017. |

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., "O'zbekiston". 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T, "O'zbekiston". 2017.

**Qo'shimcha adabiyotlar**


1. Azimov M. "Termiz tarixi", "Termiz", "Jayhun", 2001.
2. Ananaev A.G. Sherobod vohasi yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi. – T.: Sharq, 2002.
3. Asqarov A. "Eng qadimiy shahar". – T.: O'qituvchi. 1994.
4. Berdiev X, Ermatov X. "Surxondaryo tarixidan lavhalar" – T. 1991-y. 70 bet.
5. Jaloliddin Mirzo, "Termiz tarixi". – T., "Sharq", 2003.
6. Ibrahimov N. "Ibn Battuta va uning O'rta Osiyoga sayohati". – T., 1993.
7. Omonturdiev J. "Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti. T., Universitet, 2000.
8. Usmanov Q. "O'zbekiston tarixi". Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun. – T., "O'qituvchi", 2003/
9. Пянков И.В. Бактрия в античной традиции (общие данные о стране: названия и территория). – Душанбе: «Дониш», 1982.
10. Сагдуллаев А. Усадбы древний Бактрии. – Т., «Фан», 1987.
11. Ro'ziyev A.N. "Surxondaryo viloyati" – T.: Jayxun 1996.
12. Safarov Sh. "Termiziy va Termiziylar" – Termiz "Jayxun", 1993.
13. Surxondaryo. Ilmiy to'plam. – T., "Sharq",2002.
14. Tursunov S.N. "Surxondaryo tarixini o'rganish" – T., "Abdulla Qodiriy" nomidagi meros nashriyoti, 1999.
15. Qobulov E. Surxondaryo tarixi. O'quv qo'llanma. –T.2021.


**Axborot manbalari**

1. http://www.ziyo.net
2. http://www.maphistory.info/
3. http://www.history.ru
4. http://academic.emporia.edu/aberjame/map/h_map/h_map.htm
5. https://www.geography.wisc.edu/histcart/

| | |
|---|---|
| 7. | O'quv dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashning 2024-yil 30 - avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul (lar):**<br>E.Qobulov - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Tarix" kafedrasi professori, t.f.d..<br>A.Abduraxmanov–Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Tarix fanlari" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Xoliyorov T.Ch. – Termiz muhandislik-agrotexnologiyalar universiteti "Ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD).<br>Yangiboyeva D. – TerDU "O'zbekiston tarixi" kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD). |



Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi. Yunon-Baqtriya podsholigining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Yuechjilar migratsiyasi, Kushon podsholigining tashkil topishi. Kushonlar davri yodgorliklari va uning o'rganilishi. Buyuk Ipak yo'li va Surxon vohasi.

Mil.avv. 250-yilda Baqtriya satrapi Diodot Baqtriya yerlarini salavkiylar davlatidan ajratib, Yunon-Baqtriya davlatiga asos solinishi.

Kushon davri arxeologik yodgorliklaridan biri Fayoztepa, Eski Termiz devorlarining shimoli-g'arbida, Qoratepa tekisligining shimoli-g'arbidan janubi-sharqqa yo'naltirilgan holda qurilgan Budda ibodatxonasi.

**5-mavzu. O'rta asrlarda Surxon vohasi**

Arablar istilosi va uning oqibatlari. Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davrida Surxon vohasi. Ilm-fan, IX-XI asrlarda Chag'oniyon adabiyoti. Termiz sayyidlari. Mo'g'ullar istilosi. Chig'atoy ulusi davrida Surxon vohasi. Surxon vohasi Temur saltanati tarkibida. Temuriylar davrida Surxon vohasi.

Surxon vohasida V-VII asrlar badiiy san'atning, ayniqsa haykaltaroshlik va devor rang-tasvir san'atining yuksaklikka erishgan davridir. Bunga Kuyovqo'rg'on yodgorligi yorqin misol bo'ladi, undagi haykallar ko'shkning yuqori qavatidagi katta xonalardan birini bezab turgan.

**6-mavzu. XVI-XIX asrlarda Surxon vohasi**

Shayboniy va Ashtarxoniylar davrida voha aholisining ijtimoiy-siyosiy holati va Termiz va Chag'oniyon aholisining istilochilarga qarshi mardonovor kurashlari Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibida Boysun, Sherobod, Denov bekliklarini qo'shilganligi va uning tarixiy ahamiyati.

Termiz va uning atrofidagi yerlar XVII asrda o'zbeklarning qo'ng'irot urug'i qo'liga o'tadi. Bu davr haqida balxlik yirik tarixchi Maxmud ibn Vali o'zining "Baxr ul-asror fi manoqib al-ahyor" (oliyjanob kishilar haqida sirlar dengizi) asarida Termiz to'rtinchi iqlimdanligi qayd etgan.

**7-mavzu. Vohada mustabid tuzum hukmronligi va unga qarshi milliy ozodlik harakatlari.**

Termizda sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Buxoro amirligining ag'darilishi. Istiqlolchilik harakatlari. Sovetlar siyosatining Surxon vohasiga kirib kelishi va uni mahalliy xalq norozilik bilan kutib olishi, 20-yillarda vohaning minglab aholisi qattiq siquv ostiga olinib, bir qismi qatag'onlik siyosati bilan surgun qilinib, ikkinchi qismi esa qirib tashlangani.

Surxon vohasida dastlabki istiqlolchilik harakatini tashkil etganlardan Jo'raxon Mahsum, Mulla Abdurasul Hoji, Said Xatib, Abdurasulboy, Usmon Hoji, Bo'riboy, Qahhor Hoji, Saidxon Oqsoqol,Xo'jamshukur va Norqul To'qsabolar Qizil armiya bosqiniga qarshi mardanavor kurash olib borishi.

**8-mavzu Surxondaryo viloyati ikkinchi jahon urushi yillarida**

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Frontga safarbarlik. Mudofaa fondlari. Urush yillarida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi. Surxondaryoliklarning frontdagi jasorati. Ozod qilingan hududlarga yordam. 1941-yilning 22-iyun kuni, urush xabari tarqalishi, "Pattakesar" qishloq kengashi a'zolarining ming kishilik mitinggi, Fuqarolarning umumharbiy tayyorgarlikdan o'tkazish to'g'risidagi qaror.

Viloyat aholisining sog'ligini saqlash ishlari A.S. Pushkin, er-xotin Tuminovlar, S.M. Salmin. A.G. Nejegorodova, D.S. Sergeyev, M.K. Musaboyev, A.Z. Zohidova, Ya.K. Mo'minov, K.S. Zoyirov va D.S. Dodimov kabi shifokorlarning jonbozligi.

**9-mavzu. Surxondaryoda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1946-1990 yillar)**

Mustabid tuzim sharoitida viloyat sanoati. Qishloq xo'jaligi: yangi yerlarni o'zlashtirish, yutuqlar va muammolar. Ijtimoiy muammolar, ularning sabablari. Madaniy hayot, yutuqlar va muammolar. Voha adabiy harakatchiligi.